

Shoxbozbek Adxamjonov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ISLOM MOLIYA TIZIMIGA EGA MAMLAKATLARDA ISLOM MOLIYASINING TAHLILI

Annotatsiya. Bu maqolining maqsadi islom moliyasi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida, O'zbekistonda islom moliyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, maqolada islomiy moliya tizimining o'ziga xos tomonlari yoritilgan, ushbu yo'nalishdagi jahon tajribasini o'rgangan holda, uni milliy moliyaviy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Islom moliyasi, dualistik moliya tizimi, an'anaviy moliya, islom kapital, bozori, an'anaviy banklar islom banklari..

АНАЛИЗ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В СТРАНАХ С ИСЛАМСКОЙ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМОЙ

Аннотация. Целью данной статьи является разработка предложений и рекомендаций, направленных на становление и развитие исламских финансов в Узбекистане на основе изучения передового опыта стран с развитыми исламскими финансами. При этом в статье освещаются уникальные аспекты исламской финансовой системы, изучается мировой опыт в этом направлении и разрабатываются предложения и рекомендации по ее внедрению в национальную финансовую практику.

Ключевые слова. Исламские финансы, дуалистическая финансовая система, традиционные финансы, исламские финансы, рынок капитала, исламские банки.

IN COUNTRIES WITH A ISLAMIC FINANCIAL SYSTEM ANALYSIS OF ISLAMIC FINANCE

Abstract. The purpose of this article is to develop proposals and recommendations aimed at the formation and development of Islamic finance in Uzbekistan based on the study of best practices of countries with developed Islamic finance. At the same time, the article highlights the unique aspects of the Islamic financial system, studying the world experience in this direction, and developing proposals and recommendations for its implementation in national financial practice.

Keywords. Islamic finance, Dualistic financial system, traditional finance, Islamic capital market, traditional banks, Islamic banks.

Kirish. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar Moliya tizimini rivojlantirishda dualistik moliya tizimini afzal ko‘rmoqda. Bu an‘anaviy moliya tizimi va islom moliyasi bilan parallel ravishda amalga oshirilayapti. Islomiy moliya tarmog‘i esa jahonda jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo‘lgan davlatlar uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag‘larini O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta milliy moliya tizimimizga tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya‘ni an‘anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda islom moliyasini joriy qilish va rivojlantirish masalalari muhokamalarini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarorini ko‘rishimiz mumkin[1]. Bu qaror bilan asosiy yo‘nalish hamda vazifalar belgilab olingan edi, ular: energetika, yo‘l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini

rivojlantirish, sogʻliqni saqlash va taʼlim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan Xususiy sektorni rivojlantirish boʻyicha islom korporatsiyasi, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi, Investitsiyalar va eksport kreditlarini sugʻurtalash islom korporatsiyasi, Islom tadqiqot va taʼlim instituti, shuningdek, Arab muvofiqlashtirish guruhi jamgʻarmalarining moliyaviy mablagʻlarini jalb etish; bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamgʻarmalarni tashkil etish yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va Oʻzbekistonda tatbiq qilish; respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun islomiy moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Shundan kelib chiqib, islom moliya tizimini Oʻzbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish harakatlari boshlangan deb hisoblash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Islom moliyasi jahon olimlari va moliya institutlari tomonidan keng oʻrganilgan boʻlib, oʻrganish darajasi yanada ortib bormoqda. Xususan Mahdi va Abbes [2] Islom bank ishi soʻnggi oʻttiz yil ichida keng miqyosda rivojlanib kelayotganligiga eʼtibor qaratgan. Buni banklar va filiallar soni hamda investitsiya qilingan kapital miqdori tobora ortib borayotgani bilan izohlagan. Nagayev va boshqalar[3] oʻzlarining izlanishlari natijasida Shariatga mos keladigan aksiyalar anʼanaviy kapital va qatʼiy daromad bozorlari uchun muhim raqobatchi instrumentga aylanganini taʼkidlashgan. Islom fond bozori indekslariga nisbatan qiziqish 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin sezilarli darajada ortdi. Kalimullinay [4] oʻz maqolasida Rossiyada islom moliya bozorining rivojlanishini, uning tartibga solinishi va asosiy toʻsiqlari, infratuzilmasining rivojlanishi, geografik qamrovi, mavjud bozor ishtirokchilari va uning mahsulot assortimenti, bozor hajmi va prognozi, shuningdek, yangi tashabbuslarni oʻrganadi va Islom moliya institutlari va mahsulotlari bozor imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi degan fikrni ilgari surgan. Gambeeva va Medvedevalar [5] oʻzlarining ilmiy maqolalarida islom moliya tizimini rivojlantirishning asoslari va tendentsiyalari, islom moliya institutlari faoliyati tamoyillari, shuningdek, islom moliya tizimida qoʻllaniladigan moliyaviy vositalar muhokama qilinadi hamda islom va anʼanaviy banklarning oʻziga xos xususiyatlari

qiyosiy tahlil qilganlar. Bizning avvallgi ilmiy ishlarimizda XXI asrda jahon moliyat tizimi uchun yangi instrument sifatida joriy etilgan sukuk – islomiy qimmatli qog‘ozlar so‘nggi yillarda jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va COVID-19 pandemiyasi davrida ham o‘shish tendentsiyasini namoyish etganligi bayon qilingan. Maqolada 2001-2020 yillar davomida sukuk rivojlanishi tahlil qilingan. Malayziya va Turkiya mamlakatlarining bu boradagi statistik ko‘rsatkichlari alohida o‘rganilgan[6].

Melikov Otabek Maxmadaminovich o‘zining shunday deydi. Xulosa qilib aytganda, har bir inson o‘zining e‘tiqodidan kelib chiqqan holda moliya xizmatlaridan foydalanishga haqli va hozirgi kunda dunyo bo‘ylab an‘anaviy moliya xizmatlariga alternativ yechimlar yaratilgan zamonda yashayapmiz. Ya‘ni, islom moliyasi xizmatlari shariat qoidalariga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom moliyasi aktivlari yildan-yilga ko‘payib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan moliya tizimida islom moliyasini o‘rni muhim ahamiyat kasb e‘tadi. Bunga qo‘shimcha qilish mumkinki hozirga kunda nafaqat musulmon aholisi ko‘p mamlakatlar balki no musulmon davlatlar ham bunga qiziqish uyg‘otmoqda balki o‘z moliya tizimiga tadbiq qilayotkanini ko‘rishimiz mumkin. Investormonitoring sayiting ma‘lumotlariga ko‘ra, global islom moliya sanoati taxminan 4 trillion dollarga teng. Haqiqatan ham, hisobotga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 2026 yilga kelib 6 trillion dollargacha ko‘tariladi. 2021 yilda islomiy bank faoliyati global islom moliya aktivlarining qariyb 70 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi yirik segment bu sukuk (shariatga mos keladigan qarz kapitali bozori vositalari), 18% ni, Islom fondlari esa uchinchi o‘rinda, taxminan 4% ni tashkil qiladi.

Biz uyidagi jadvalimizda islom bank faoliyati bilan an‘anaviy banklar o‘rtasidagi farqlar ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Islom bank faoliyati bilan an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar

An'anaviy bank faoliyati	Islom banki faoliyati
Pul ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasidan tashqari tovardir. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish va ijaraga berish ham mumkin.	Pul tovar emas, lekin u ayirboshlash vositasi va qiymatni saqlash vositasi sifatida ishlatiladi. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish yoki ijaraga berish mumkin emas.
Vaqt qiymati kapitalga foizlarni hisoblash uchun asosdir.	Tovar savdosidan yoki xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromad foyda olish uchun asos bo'ladi.
Bank mablag'laridan foydalangan holda tashkilot zarar ko'rgan taqdirda ham foizlar undiriladi. Shuning uchun u foyda va zararni taqsimlashga asoslanmagan.	Islom banki foyda va zararni taqsimlash asosida ishlaydi. Agar tadbirkor zarar ko'rgan bo'lsa, bank bu yo'qotishni qo'llanilgan moliyalashtirish usuliga qarab taqsimlaydi (Mudarabah, Musharaka).
Naqd pul mablag'larini berish, moliyalashtirish yoki aylanma mablag'larni moliyalashtirishda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha kelishuv tuzilmaydi.	Murabaha, Salam va Istisna shartnomalari bo'yicha mablag'larni taqsimlashda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha shartnomalar bajarilishi shart.
An'anaviy banklar pulni inflyatsiyaga olib keladigan tovar sifatida ishlatadi.	Islom banki savdo bilan bog'liq faoliyatdan foydalangan holda iqtisodiy tizimning real sektorlari bilan aloqa o'rnatishga intiladi.
An'anaviy bank asosiy e'tiborni kreditlashga qaratadi.	Islom banki asosiy e'tiborni sarmoyagaqaratadi.
An'anaviy banklar faqat moliyaviy mezonlar asosida ish yuritadi.	Islom banklari investitsiyada axloqiy mezonlarga asoslanadi.
An'anaviy banklarning faoliyati inson omiliga (asosan kapitalizm nazariyalariga) asoslanadi.	Islom banklari faoliyati islom shariatining qoidalariga asoslanadi.
Investor yoki kreditor oldindan belgilangan foiz stavkasi bo'yicha savdo qiladi yoki daromadni kafolatlaydi.	Islom banklari kapitalning egasi bilan investor o'rtasida risk taqsimotini tasdiqlaydi.
Derivativlar savdosi asosida foydani maksimallashtirishni tasdiqlaydi.	Islom dini tomonidan cheklovlar mavjud bo'lsa-da, u foydani maksimal darajada oshirishga qaratilgan.
Zakot tizimi mavjud emas.	Zamonaviy islom bank tizimida islom banklari «Zakot yig'ish markazlari»ga aylanishi uchun xizmat qiluvchi birlik sifatida ko'riladi.
Ular qarzga pul berib, foiz bilan qaytarib olishadi. Pul — bu tovar va motivator.	Ishtirok etish hamkorligi mavjud. Korxonani tushunish juda muhimdir.
Tizimda muntazam to'lovlarni amalga oshirmaydiganlardan (masalan, jarimalar yoki oshirilgan foizlar) qo'shimcha pul olish mumkin.	Islom banklari kompensatsiyadan tashqari qo'shimcha pul talab qilishga haqli emas. Bankning ixtiyoriga ko'ra erta to'lovlarda puldan chegirma ham mavjud.
Ko'pincha bank manfaati birinchi o'rinda turadi va kapitalga mos ravishda o'sish maqsadi yo'q.	Inson manfaatlari ustuvor bo'lib, o'sish tenglikka qaratilgan.
Loyihani baholash ko'p kuch talab etmaydi, chunki avans/ssudadan olinadigan daromad belgilangan. Shuning uchun xavflar qaysidir ma'noda boshqa tomonga yuklanishi mumkin.	Foyda va zararni taqsimlash mavjud bo'lgani sabab, islom bankchiligida loyihalarni qo'llash va baholashga ko'proq e'tibor qaratish lozim.
An'anaviy banklar o'z mijozining ishonchli ekaniga ko'proq e'tibor beradi.	Ular loyihalarning moliyaviy imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.
Tomonlar munosabatlarda kreditorlar va qarz oluvchilar shaklida belgilanadi.	Islom banklaridagi munosabatlar hamkorlar, investorlar, treyderlar, xaridorlar va sotuvchilar sifatida belgilanadi.
An'anaviy banklar ularga qo'yilgan barcha depozitlarni kafolatlashi kerak.	Islom banklari shaxsiy hisobvaraqlarga qo'yilgan pullarni kafolatlaydi, ammo mudaraba investitsiyalariga kafolat bermaydi, chunki boshqa tomonning yo'qotishlarini bo'lishadi.

Umuman olganda, islom moliyaviy bank sektori 17 foizga o'sib, 2,8 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Aktivlar bo'yicha ikkinchi yirik sektor bo'lgan sukuk 2021-yilda 14 foizga o'sib, 713 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Dunyo bo'ylab 560 dan ortiq banklar islom tamoyillariga amal qiladi va islomiy moliya viy aktivlarning o'sishi 2026 yilga borib 5,9 trillion dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Yangi emissiya 9 foizga o'sib, rekord darajadagi 202,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Malayziya 650 milliard dollar (2,95 trillion RM) islomiy bank aktivlariga ega bo'lib, u Erondan keyin birinchi va Saudiya Arabistonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakatda to'liq islomiy yoki islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qiluvchi oynalari bo'lgan 38 ta bank mavjud bo'lib faoliyat olib bormoqda. Avstraliya, Shri-Lanka, Afg'oniston, Bangladesh va Pokiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng rivojlangan islomiy moliya davlati sifatida qarashimiz mumkin.



1-rasm. **Yaqin sharqda islom moliya bozorining o'sish prognozi [7]**


Yaqin Sharq islomiy moliya bozori hajmi 2024 yilda 2 trillion dollarga baholanmoqda va 2029 yilga kelib 2,57 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Takaful, Sukuk va Islom fondlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yetakchi islomiy moliya mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Bangladesh, Malayziya, Maldiv orollari, Mavrikiy va Indoneziya yetakchi o'rinlarga ega. Malayziya va Indoneziya o'tgan yili 279 milliard dollar va 84 milliard dollarga teng bo'lgan sukuk bilan yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Ushbu tendentsiyalar Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'rnatilgan va

doimiy ravishda kengayib borayotgan Islomiy moliya bozorini anglatadi.




2-rasm. Sukuk bo'yicha Malayziya va Indoneziya ulushi foizda[8]

London fond birjasi xalqaro sukuk listinglari uchun mashhur joy bo'lib, 2023-yil may oyi holatiga ko'ra 68 ta sukuk emissiyasi orqali 50 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilgan, birjadan bunday xizmatlardan foydalangan kompaniyalar orasida Islom taraqqiyot banki ham bor. Buyuk Britaniyaning islomiy moliya bozori hajmi 2024 yilda 7,5 milliard dollarga baholanmoqda va 2029 yilga kelib 8,74 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.



4-rasm. Islom moliyasi kelgusi davrdagi pragnozi[8]

Buyuk Britaniya global islom banki aktivlarida nisbatan kichik o'yinchi hisoblanadi. Biroq, Buyuk Britaniya Yevropadagi asosiy o'yinchi bo'lib, Yevropadagi barcha islomiy bank aktivlarining 85 foizini tashkil qiladi va Yevropadagi eng katta islomiy bank aktivlariga ega (Turkiyadan tashqari). Buyuk Britaniyada so'nggi o'n yil ichida Islomiy moliya sohasida tez o'sish kuzatildi, chunki hukumat bu sektorni ilgari surish va targ'ib qilishda juda faol.



3-rasm. **Islom moliyasining o'sish surati** (AQSh dollarida)[9]

G'arb va islom yurisdiksiyalarida texnologiyaga asoslangan shariatga mos banklarni yaratish ko'payib bormoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi davlatlar iqtisodiy modernizatsiya qilinayotgan mintaqalarda fintech kompaniyalari iste'molchilar va investorlarga o'z mablag'larini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan raqamli vositalarni taqdim etishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu islomiy fintech kompaniyalariga ko'proq investitsiyalar yo'naltirilsa, biz sektorning o'sishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Islom moliyasi bugungi kunga kelib jahon moliya tizimida katta ahamiyatga egahisoblanadi. Hozorgi kunga nomusulmon bo'lgan mamlakatlarda bu tizimdan samaralifoydalanib kelinmoqda. Bu esa islom moliyasini yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. O'rganishlar natijalaridan bir qancha xulosalarga kelish mumkin. Dualistik tizim ko'p mamlakatlarda o'zini oqlagan va moliya tizimida raqobat muhitini rivojlantirib mamlakat aholisiga moliya tizimidan samarali foydalanish uchun

imkoniyatlarni vujudga keltirgan. Islom moliyasini amaliyotga yo'lga qo'yiladigan bo'lsa bizning moliya tizimimizda katta o'zgarish mumkin yani an'anaviy moliya bilan parallel ravishda bu tizim teng faoliyat yuritisa mamlakatda ikki moliyaviy tizimni raqobatlashuvi yuzaga keladi va iqtisodiyotda o'ziga hos imkoniyatlar ochiladi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlilida so'ngi besh yil ichida past natijalar kuzatilmagan. Shuni alohida ta'kidlash keraki, 2020-yilda pandemiya sharoitida ham islom moliyasi natijalari tushmagan va yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan. Shundan so'ng musulmonlar kam istiqomat qulivchi mamlakatlarda ham o'zlarining moliya siyosatiga islom moliyasini joriy qilib dualistik tizimni shakllantirish yo'lidan bormoqda. Agar bu tizimni joriy qilsak islom mamlakatlari va musulmon aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlardan tashqi investitsiyalar jalb qilib tashqi investitsiya salohiyatini yanada oshirish mumkin. Shu bilan bir qatorda bizning aholimiz aksar qismi musulmon bo'lganligi sababli ichki investitsiya muhitini ham rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Tahlilimizda o'rganilgan mamlakatlarning moliya tizimi o'rgangan holda mamlakatimizda an'anaviy moliya bilan birgalikda islom moliyasini jalb qilib, dualistik tizimni joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarori.

2.Mahdi, I. B. S., & Abbes, M. B. (2018). Relationship between capital, risk and liquidity: a comparative study between Islamic and conventional banks in MENA region.

3. Research in International Business and Finance, 45, 588-596.
<https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2017.07.113>

4.Nagayev, R., Disli, M., Inghelbrecht, K., & Ng, A. (2016). On the dynamic links between commodities and Islamic equity. Energy Economics, 58, 125-140.
<https://doi.org/10.1016/j.eneco.2016.06.011>

5. Kalimullina, M. Islamic finance in Russia: A market review and the legal environment. Global Finance Journal, 46, 100534.
<https://doi.org/10.1016/j.gfj.2020.100534>

6. Gambeeva, Yu. N., & Medvedeva, S. N. (2018) Islamic finance: features of formation and development. Russian Journal of Entrepreneurship
<https://doi.org/10.18334/rp.19.1.3875>

7. Abrorov Sirojiddin Zuxridin o'g'li (2021) Jahon mamlakatlarida sukuk bozori rivojlanishining tahlili. Iqtisodiyot va ta'lim 5-son, 250-254-bet

8. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/uk-islamic-finance-market>

9. <https://bestpublication.org/index.php/jaj/article/view/10301/10294>